

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Sirdaryo viloyati adliya**  
**boshqarmasi boshlig‘i, komissiya**  
**raisi**

 **S.Sattarov**

2023-yil “5” yanvar

**Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasida “Oyning eng yaxshi xodimi”ni aniqlash**  
**bo‘yicha komissiyasining**  
**YIG‘ILISH BAYONI**

2023-yil “5” yanvar

Guliston shahri

**Raislik etuvchi:**

S.Sattarov (komissiya raisi)

**Qatnashdi:**

A.Shayjigitov, B.Nazarov, S.O‘rmanov,  
A.Mavlanov, A.Axrorov, B.Narbayev  
(komissiya a‘zolari)

**Yig‘ilish kotibi:**

Sh.Ubaydullayev

**Kun tartibidagi masala:**

**Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasida “Oyning eng yaxshi xodimi”ni aniqlash to‘g‘risida**

---

(S.Sattarov, A.Shayjigitov, B.Nazarov, S.O‘rmanov, A.Mavlanov, A.Axrorov,  
B.Narbayev )

Yig‘ilishni boshqarma boshlig‘i, komissiya raisi S.Sattarov kun tartibidagi masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2018-yil 24-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi markaziy apparatida “Oyning eng yaxshi xodimini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 332-um-son va O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi markaziy apparatida “Oyning eng yaxshi xodimi”ni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 22-um-son buyruqlari asosida Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi va uning tizimidagi idoralar xodimlariga yuklatilgan mehnat vazifalarini bajarishda ularning mas‘uliyatini yanada oshirish, xodimlarni halol mehnati uchun rag‘batlantirish orqali mehnat intizomini mustahkamlash maqsadida adliya boshqarmasida “Oyning eng yaxshi xodimi”ni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan mezonlarga qat‘iy rioya etilishi zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Sardoba tuman adliya bo‘limi FHDY bo‘limi 1-toifali inspektori B.Xalikulov, Oqoltin tuman adliya bo‘limi FHDY bo‘limi 1-toifali inspektori D.Normatova, FHDY arxivi mudirasi N.Normatovalarning 2022-yil dekabr oyida bajarilgan ishlari to‘g‘risidagi hisobot va boshqarmaning mas‘ul bo‘linmalari boshliqlari ishtirokida o‘tkazilgan so‘rov natijalari komissiya a‘zolariga taqdim qilindi.

Shundan so'ng komissiya kotibi Sh.Ubaydullayev so'zga chiqib, boshqarma tarkibiy bo'lim xodimlari tomonidan o'zining bo'limidan nizomda belgilangan mezon va talablarga javob beradigan Sardoba tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori B.Xalikulov, Oqoltin tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori D.Normatova, FHDY arxivi mudirasi N.Normatovalarning nomzodlari olinib, 2022-yil dekabr oyida bajarilgan ishlari to'g'risidagi hisobot va boshqarmaning bo'lim boshliqlari ishtirokida o'tkazilgan so'rov natijalari komissiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqilib baholanganligi, baholash natijasida eng ko'p ball to'plagan 3 nafar nomzodlar bo'yicha boshqarmaning telegram guruhida o'tkazilgan ochiq ovoz berish so'rovnomasida Sardoba tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori Xalikulov Baxodir Berkinbayevich eng ko'p ovoz to'plaganligini, ya'ni ishtirok etgan respondentlarning 51 % i unga ovoz berganligini ma'lum qildi. (Ma'lumot uchun: D.Normatova 26 % va N.Normatova 23% ovoz to'plagan).

Shundan kelib chiqib, komissiya raisi 2022-yilning dekabr oyida bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobot, boshqarmaning mas'ul bo'limlari boshliqlari ishtirokida o'tkazilgan so'rov natijalari hamda ochiq ovoz berish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomani inobatga olib, yuqoridagi nizomda keltirilgan mezonlarga ko'ra joriy yilning dekabr oyida "Oyning eng yaxshi xodimi"ga Sardoba tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori Xalikulov Baxodir Berkinbayevichning nomzodi taklif etilishi maqsadga muvofiqligini aytib o'tdi.

Komissiya a'zolari nomzodning hujjatlari bilan tanishib chiqqach, komissiya raisi tomonidan berilgan taklif yuzasidan qarshiliklar yo'qligi ma'lum qilindi.

Yuqoridagilarga ko'ra, komissiya "Oyning eng yaxshi xodimi"ni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq,

### **QAROR QILADI:**

1. 2022-yil dekabr oyida Sardoba tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi 1-toifali inspektori Xalikulov Baxodir Berkinbayevich "Oyning eng yaxshi xodimi" deb topilsin.

2. Inson resurslari bo'limi (A.Mavlanov):

boshqarma binosida tashkil etilgan "Oyning eng yaxshi xodimi" burchagiga B.Xalikulov haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish chorasini ko'rsin;

B.Xalikulovga rag'batlantirish tariqasida bir oylik ish haqi miqdorida pul mukofoti berish yuzasidan boshqarma boshlig'iga taklif kiritsin.

3. Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'limi (A.Axrоров) "Oyning eng yaxshi xodimi" haqidagi ma'lumotlarni Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilishini ta'minlasin.

**Komissiya kotibi**



**Sh.Ubaydullayev**

